

“GO‘RO‘G‘LINING TUG‘ILISHI” DOSTONIDA QO‘LLANGAN FRAZEOLOGIZMLARNING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI

Noraliyeva Dildora Abduvalikovna,
Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Barqaror birikmalar xalq tajribasi, uzoq yillik muloqot tarixi natijasida vujudga keladi. Bunday birikmalar leksemalar singari inson xotirasida tayyor holda saqlanadi. Barqaror birikmalar tilshunoslikda paremiologik birliklar deb ham yuritiladi. “Nutqqa tayyor holda kiritiluvchi, nutqdan avval xalq leksikasida mavjud bo‘lgan, ikki va undan ortiq so‘zlarning o‘zaro barqaror bog‘lanishidan tashkil topgan bunday birikmalar mustahkam birikmalar deb ataladi”¹. Barqaror birikmalarni o‘rganish til tizimi haqida to‘liq tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Muloqot qilish jarayonida barqaror birikmalarining mazmunini to‘g‘ri anglamaslik kommunikatsiya samaradorligini pasaytiradi. Barqaror birikmalar xalqning lingvokulturologik boyligi, estetik dunyoqarashi va tarixiy tajribasining muhim mahsuli sifatida ko‘rinadi. Ular uzoq yillar davomida, xalqning madaniy, ijtimoiy va ma‘naviy hayotidagi tajribalar asosida shakllanib, o‘ziga xos til va madaniyat ko‘zgusi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu birikmalar xalqning o‘tmishdagi hayot tarzi, qadimiy urf-odatlarini va dunyo haqidagi tasavvurlarini aks ettirib, tilning boyligi va o‘ziga xosligini ta‘minlaydi.

“Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonida ham iboralar o‘ziga xos lingvistik “yuk”dan tashqari, muayyan lingvokulturologik vazifalarga ham ega bo‘ladi. “Ibora, odatda, xalq turmush tarzi bilan o‘ta uyg‘un, ya‘ni yonma-yon hayot kechiradi. Frazologizmlar har bir xalq lingvomadaniyatining muhim birligidir”². Iboralar qismlari o‘zaro barqarorlik asosida birikkan va umumiy ustama ko‘chma ma‘no ifodalari ekan, tabiiyki, ular ta‘sirchanligi, nutqqa ko‘tarinkilik qo‘shishi bilan leksemalardan ustun turadi. Aynan shu xususiyatlar talab etiladigan xalq dostonlarida iboralar qahramonlar sajjiyasini ochib berish, voqealarning sur‘atini ko‘rsatish, ta‘sirchanlikni oshirish maqsadida qo‘llanadi. Frazologizmlarning semantikasi xalq madaniyatining uzoq yillik rivojlanish yo‘lini yorqin aks ettiradi. Har bir tilning barqaror iboralari xalqning ijtimoiy va tarixiy tajribalarini, axloqiy qadriyatlarini, ma‘naviy-madaniy me‘yorlarini, diniy tasavvurlarini, milliy an‘analarini, urf-odatlarini, shuningdek, madaniy stereotiplar va arxetiplarni o‘zida mujassam etadi. Bu iboralar xalqning o‘tmishdagi hayot tarzi, dunyoqarashi va qadimiy odatlarini ifodalab, tilning o‘ziga xos boyligini ta‘minlaydi.

¹ Хасанова Ш. Барқарор бирикмалар: моҳияти, адабиётдаги ўрни ва таҳлил // Медицина, педагогика и технология: теория и практика. №3. 2025. – С.120-132.

² Jumayeva Z. Frazologik birliklarning semantik va lingvokulturologik tadqiqi: Filol. fanl. b. fals. dok. (PhD) diss. avtoref. – Jizzax, 2021. – 48 b.

Ular nafaqat tilning badiiy va obrazli imkoniyatlarini oshiradi, balki xalqning ma'naviy merosini avlodlardan avlodlarga uzatishda muhim ko'priq vazifasini o'taydi. Frazologizmlar xalq og'zaki ijodining muhim qismi sifatida, uning tarixiy va madaniy o'ziga xosligini saqlab, milliy identiklikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu iboralar tilning estetik jihatlarini boyitib, tinglovchi yoki o'quvchida chuqur hissiy ta'sir uyg'otadi.

Doston matnida o'nlab iboralar qo'llangan bo'lib, ular voqealar rivojini to'g'ri tushunishga yordam bergan, ifodani soddalashtirib, ta'sirchanlikni oshirgan. Masalan, Gajdumbek Bibi Hilolning hovliga bir qul sotib olish lozimligi haqidagi taklifiga quyidagicha javob beradi:

“– *E singlim, jigarim, g'am yemagin, har nima desang qilaman, – deb ko'p tanga tillani olib, xurjunga solib, Bibi Hiloldan fotiha olib, ko'chaga chiqib keta berdi*”³.

Mazkur parchaning o'zida ikkita ibora qo'llangan: *g'am yemoq, fotiha olmoq*. *G'am yemoq* iborasi uchun “O'zbek tilining frazeologik lug'ati” (2022)da quyidagi lug'at maqolasi tayyorlangan:

“G'AM YEMOQ *kim?* kuyinib qayg'urmoq.

Siz bor, biz bor, to'yni yaxshilab o'tkazamiz, oqsoqol, g'am yemang. S.Anorboyev. Oqsoy”⁴.

Iboralarning ma'nosi bir so'zga teng kelishi aksariyat manbalarda qayd etilgan bo'lsa-da, iboralarning qo'shimcha ma'nosi so'z ma'nosidan aksariyat hollarda ustun bo'ladi. “Iboradan anglashiladigan belgi, miqdor va harakat kabilar haqidagi ma'lumot frazeologik ma'no (iboraning atash semasi) deyiladi. Frazologik ma'no obrazli va jozibali bo'ladi. Shu xususiyati bilan leksema sememasidan farqlanadi”⁵. Ibora, leksema kabi, tilning lug'aviy birligi hisoblanadi va uning lug'at boyligini shakllantiradi. U so'z birikmasi yoki gap kabi nutq jarayonida vujudga kelmaydi, aksincha, leksema singari tilda tayyor shaklda mavjud bo'ladi. Shunday ekan, ibora nutq hodisasi emas, balki tilning o'ziga xos lisoniy birligidir. Semantik ko'lamiga ko'ra o'zaro mutanosib bo'lgan leksema va iborani nutqda qo'llash tinglovchiga ta'sir nuqtayi nazaridan bir xil natija beravermaydi. Ta'kidlanganidek, iboraning obrazlilik, qo'shimcha ma'nosining boyligi doston matnlarida so'zga nisbatan iboralarning ko'proq tanlanishiga sabab bo'ladi. Yuqoridagi parchada Gajdumbekning Bibi Hilolga aytgan “*E singlim, jigarim, kuyinmagin, har nima desang qilaman*” tarzida shakllantirilganda ta'sirchanlik pasaygan, akaning singil iltimosini bajarishga bor vujudi bilan kirishganligi o'quvchiga to'liq ayon bo'lmay qolar edi. Shuningdek, doston matni ta'sirchanligi pasaygan,

³ Go'ro'g'lining tug'ilishi: xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: Yangiyul Poligraph Service, 2019. – B.20. – 208 b.

⁴ Rahmatullayev Sh. va boshq. O'zbek tili frazeologik lug'ati. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2022. – B.619. – 636 b.

⁵ Mengliyev B. Hozirgi o'zbek tili. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2018. – B.190. – 200 b.

o'quvchiga ma'lumotni qabul qilish murakkablashgan bo'lardi. Iboraning ma'no tarkibida qo'shimcha ma'no, ya'ni ifoda semasi yetakchilik qilar ekan, bunda konnotativ ma'noning yetakchilik qilishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Go'ro'g'lining tug'ilishi: xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: Yangiyul Poligraph Service, 2019. – B.20. – 208 b.
2. Jumayeva Z. Frazeologik birliklarning semantik va lingvokulturologik tadqiqi: Filol. fanl. b. fals. dok. (PhD) diss. avtoref. – Jizzax, 2021. – 48 b.
3. Rahmatullayev Sh. va boshq. O'zbek tili frazeologik lug'ati. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2022. – B.619. – 636 b.
4. Mengliyev B. Hozirgi o'zbek tili. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2018. – B.190. – 200 b.
5. Хасанова Ш. Барқарор бирикмалар: моҳияти, адабиётдаги ўрни ва таҳлил // Медицина, педагогика и технология: теория и практика. №3. 2025. – С.120-132.